Raxmatullaeva (2016) soliq imtiyoziga kategoriya sifatida quyidagicha ta'rif bergan: "imtiyozlar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir" [4].

Jo'rayev va boshqalar (2009) soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin [5].

Shuning bilan, soliq imtiyozlarini taqdim etish, ularni tizimlashtirish, ularning joriy qilinishi natijasida raqobat muxitining murrakablashib borishi yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O'RQ-891-sonli Qonuni, "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni, O'zbekiston Respubikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi PF-221-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjatlarga asosan soliq qonunchiliga quyidagi qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.Jumladan soliq kodeksining 46-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, Soliq kodeksining 17-moddasida ko'rsatilgan yig'imlarning turlariga yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan avtotransporti vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanish huquqi uchun yig'im turi kiritildi. Shu munosabat bilan Soliq kodeksining 455, 456, 457, 458 va 460-moddalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

2024-yil uchun yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalaring avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'imlar stavkalari quyidagicha belgilandi:

- yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan 25 tonnagacha bo'lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida ya'ni 1 700 000 so'm qilib belgilandi.

- yuk ko‘tarish quvvati 25 tonnadan 35 tonnagacha bo‘lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida, ya’ni 2 720 000 so‘m qilib belgilandi.
- yuk ko‘tarish quvvati 35 tonna va undan yuqori bo‘lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig‘imbazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida, ya’ni 3 400 000 so‘m qilib belgilandi.

Yig‘im Transport vazirligi hududiy boshqarmalari tomonidan yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan og‘ir avtotransport vositalari va tirkamalariga qonunchilikda belgilangan tartibda avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanish huquqini beruvchi ruxsatnoma berish chog‘ida undiriladi. Bunda, to‘langan yig‘im yuk avtotrasport vositalari va tirkamalariga avtomobil yo‘llari bo‘ylab bir yil davomida harakatlanish huquqini beradi.

Yig‘imning 90 foizi -Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faolitini rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash jamg‘armasiga, 10 foizi- Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga tushadi.

Mazkur yig‘im og‘ir yuk mashinalari tomonidan yetkazilayotgan zararlarni qoplash maqsadida joriy etildi. Chunki og‘ir yuk mashinalari tomonidan Respublika va mahalliy darajadagi yo‘llardan foydalanishda ularni yaroqsiz holga keltirish holatlari ko‘plab uchramoqda.

Soliq kodeksining Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari to‘g‘risidagi 22-moddasi soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni uch yil mobaynida but saqlanishini belgilandi. Ilgari mazkur muddat 5 yil edi.

Soliq kodeksining 84-moddasidagi Soliq hisobotini va unga ilova qilinadigan hujjatlarni saqlash muddati besh yildan uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining 88-moddasidagi Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari soliq davri tugaganidan keyin besh yildan uch yilga qisqartirildi. Soliq organi yoki boshqa vakolatli organ soliq tekshiruvini o‘tkazishga, tekshiruv natijalari bo‘yicha soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuborishga yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar miqdorini qayta ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan muddat soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati hisoblanadi. Soliq kodeksining 104-moddasidagi Ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza ko‘rsatilgan summa to‘langan kundan e’tiboran uch yil ichida berilishi mumkin. Mazkur muddat besh yil edi. Soliq kodeksining 105-moddasidagi ortiqcha undirilgan soliqni hisobga olish yoki qaytarish tartibidagi ortiqcha undirilgan soliq summasini undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza berish muddatini besh yildan uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining transfert narxini belgilashda soliq nazorati to‘g‘risidagi 194-moddasida tekshirish o‘tkazish muddati tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan yildan avvalgi “besh” kalendar yildan “uch” kalendar yiliga qisqartirildi. Soliq kodeksining transfert narxini belgilashda soliq nazorati to‘g‘risidagi 195-moddasida tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risida bildirishnoma yoki xabarnoma olingan kundan e’tiboran uch yildan kechiktirmay chiqarilishi mumkinligi belgilandi.

Mazkur moddaning to‘rtinchi qismdagi soliq summasi soliq hisobotida ilgari berilganidan ko‘ra kam miqdorda (zarar summasi – kattaroq miqdorda) aks ettirgan holda aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan bo‘lsa, tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror ushbu aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e’tiboran uch yildan kechiktirmay chiqarilishi mumkin. Bunda tekshiruv faqat tuzatish kiritish amalga oshirilgan nazorat qilinadigan bitimga nisbatan o‘tkaziladi. Bu holatda ham besh yillik muddat uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining 217-moddasidagi javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran yoki mazkur huquqbuzarlik sodir etilgan soliq davri tugaganidan keyingi kundan e’tiboran va javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytga qadar uch yil (o‘tish muddati) o‘tgan bo‘lsa, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilandi.

Bu holatda ham besh yillik muddat uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining yakka tartibdagi tadbirkorlarning Soliq solinadigan daromadlarni va chegiriladigan xarajatlarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi 359-moddasidagi soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran besh yil mobaynida saqlanish sharti uch yilga almashtirildi.

Bu holatda ham besh yillik muddat uch yilga qisqartirildi. Mazkur o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarida belgilab belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatini besh yildan uch yilga qisqartirilishi munosabati bilan kiritildi. Soliq kodeksining 100-moddasidagi Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlariga kameral soliq tekshiruv natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi. Soliq kodeksining Kameral soliq tekshiruvlari to‘g‘risidagi 138-moddasida quyidagi tahrirda ikkinchi qism bilan to‘ldirildi.

Kameral soliq tekshiruvida quyidagi soliq nazorati harakatlarini o‘tkazish ta’qiqlanadi, bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) maqsadida o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi mustasno:

1) soliq to‘lovchining hududiga kirish;

2) soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish;

3) soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;

4) soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.

Kodeksning 138-moddaning o‘n birinchi va o‘n ikkinchi qismlari kameral soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to‘lovchidan (soliq agentidan, uchinchi shaxsdan) hisobga olish hujjatlarini, taqdim etilgan soliq hisobotiga va hisobga olish hujjatlariga doir tushuntirishlarni, shuningdek soliq hamda yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash bilan bog‘liq boshqa axborotni so‘rab olishi mumkin, So‘ralgan hujjatlar va tushuntirishlar soliq organiga tegishli so‘rov olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etilishi kerak degan qismlari chiqarib tashlandi. Bunda kameral soliq tekshiruvi soliq organlarida mavjud ma’lumotlar asosida tadbirkorlik subyektining ishtirokisiz soliq organining o‘zida o‘tkazilishi (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarishda o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvlari mustasno) nazarda tutilgan. Soliq organlarining soliq to‘lovchining hududiga kirish, soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish, soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish, soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish huquqlari bekor qilindi. Soliq kodeksining 237-moddasidagi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari safiga O‘zbekiston Respublikasi realizatsiya qilish joyi deb etilgan taqdirda chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar ham qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida qo‘shildi

Mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar xizmat ko‘rsatganda QQS to‘lamoqda, lekin xuddi shu xizmatlarni chet ellik tadbirkorlar (jismoniy shaxs) ko‘rsatganda QQSga tortilmasdan qolmoqda. Ushbu tartibni joriy etilishi xorijiy va mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir xil sharoit yaratish imkonini beradi. Soliq kodeksining 243-moddasi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilinadigan tovar aylanmalaridan 11,12,13-bandlari, ya’ni tibbiy xizmatlar, veterinariya xizmatlari va dori vositalarini sotish bo‘yicha aylanmalar chiqarib tashlanmoqda. Bunda “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilgan fuqarolarga QQS summasi (12 foiz) “keshbek” sifatida qaytarish mexanizmi yaratiladi.

Soliq kodeksining 246-moddasida 11-bandidagi qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan import qilinadigan mahsulotlar ro‘yxatidan dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonunchilikda belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xom ashyolar chiqarib tashlandi. Soliq kodeksining ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo‘llanilishi 264-moddasidagi uchinchi qism suv ta’minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta’minoti bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo‘linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi degan qismi chiqarib tashlandi. Endilikda bur turdagi tovar aylanmasiga 12 foizlik stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi.

Soliq kodeksining soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslarning jami daromadlariga kiritilmaydigan daromadlar to‘g‘risidagi 369-moddasi ikkinchi qism bilan to‘ldirildi va ikkinchi qism uchinchi qism deb nomlandi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida yuz million so‘mdan oshgan kundan e’tiboran Soliq kodeksi maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliqqa tortiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliqni Soliq kodeksida belgilangan tartibda to‘laydi. Bir xil faoliyat turlarini amalga oshiruvchi o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatidan ro‘yxatdan o‘tganlar umuman soliq to‘lamay, lekin xuddi shu faoliyatni amalga oshiruvchi YATTlar soliq to‘lar edi. Misol uchun: Farg‘ona viloyati, Toshloq tumanida “Milliy non va patirlarni tayyorlash va sotish” faoliyati bilan shug‘ullanuvchi o‘zini o‘zi band qilgan fuqaro M. Isakova 2023-yil yanvar-avgust oylarida 817,7 mln so‘mlik tovar aylanmasini amalga oshirgan. Xuddi shunday faoliyati bilan shug‘ullanayotgan YATT ushbu miqdordagi tovar aylanmadan 4 foizli stavkada 33 mln so‘m aylanmadan olinadigan soliqni to‘laydilar. Mazkur o‘zgarish yakka tartibdagi tadbirkor va o‘z-o‘zini band qilgan shaxslar uchun soliq solishda teng sharoitlar yaratish maqsadida kiritildi.

Soliq kodeksining jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari to‘g‘risidagi 378-moddasi 16-bandi ikkinchi xatboshi o‘zining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi uchun to‘lov degan qismi o‘zining, farzandlarining va shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan erining (xotinining) ta’lim olishi uchun to‘lov bilan almashtirildi. Ya’ni farzandlarining yigirma olti yosh-

gacha boʻlgan chegara olib tashlandi. Endilikda farzandlari yoshidan qatʼiy nazar ota ona tomonidan oʻqishi uchun toʻlangan toʻlov kontraktlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan ozod qilinadi.

Soliq kodeksining 378-moddasi quyidagi 22 va 23-bandlar bilan toʻldirildi.

22) aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonalar xodimlari tomonidan oʻz xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishga yoʻnaltiradigan oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlaridan oshmaydigan mablagʻlari;

23) soliq toʻlovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qogʻozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvaragʻiga yoʻnaltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

- soliq davri davomida jami mehnatga haq toʻlash eng kam miqdorining yuz baravarigacha boʻlgan miqdorda;
- toʻlovlar oʻsib bormaydigan tartibda toʻlanganda va bir yoʻla toʻlanadigan toʻlovlar shartnoma davri boshlanishi sanasidan oʻn ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan;

Mazkur bandning shartlari buzilganda yoxud shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va mablagʻlar toʻliq yoki qisman qaytarilganda, qaytarilgan mablagʻlar toʻlov manabida soliqqa tortiladi.

Soliq kodeksining 411-moddasining soliq solish obyekti hisoblanmaydigan koʻchmas mulk obyektlari roʻyxatiga koʻp kvartirali uylarda joylashgan koʻp kvartirali uy mulkdorlarining umumiy mol-mulki qoʻshildi. 2024-yilda uy-joy fondining koʻchmas mulk obyektlariga shuningdek, ular egallab turgan yer uchastkalariga nisbatan 2018-yilda belgilalangan kadastr qiymati asosida hisoblangan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi 2023-yil hisoblangan soliq summasidan 1,3 baravardan oshmasligi belgilandi:

Jismoniy shaxslar uchun qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun yer soligʻi summasi 2023-yilda hisoblangan summaning 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi belgilandi. (PQ522 29.12.2023). Soliq kodeksining 412-moddasi birinchi qismi 1-bandi yashash uchun moʻljalanmagan koʻchmas mulkning mol-mulk soligʻining soliq solish bazasi 1 kv. metr uchun belgilangan mutlaq miqdorlar eng kam qiymati quyidagi miqdorlarda belgilandi.

Toshkent shahrida 3 million soʻm belgilandi, 2023-yilda 2,5 mln. soʻm edi, Nukus shahrida va viloyat markazlarida - 2 million, 2023-yilda 1,5 mln. soʻm edi, Boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1,2 millon soʻm, 2023-yilda 1,5 mln. soʻm edi. Yaʼni, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk boʻyicha 1 kv.metri soliqqa tortish bazasi yuqoridagi qiymatdan past boʻlishi mumkin emas.

Soliq kodeksining 420-moddasiga soliqqa tortish maqsadida yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulklar boʻyicha jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk soligʻiga tortish bazasi yuridik shaxslardagi kabi 1 kv metri uchun belgilangan mutlaq qiymatdan past boʻlmaslik sharti belgilandi. Mazkur tartib yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda, ularni jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli boʻlishidan qatʼi nazar teng sharoitlar yaratildi. Shuningdek, Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni 1 kv. metr koʻchmas mulkning minimal qiymatidan kelib chiqib toʻlash joriy etilishi bilan amalda yuridik shaxslar tomonidan kamroq soliq toʻlash maqsadida jismoniy shaxslarga koʻchmas mulkni qayta roʻyxatdan oʻtkazish holatlari oldi olindi.

Soliq kodeksining 434-moddasining "yer soligʻining soliq solish obyekti hisoblanmaydi"- degan qismiga Koʻp kvartirali uylar egallagan va koʻp kvartirali uylar mulkdorlariga umumiy foydalanish (notijorat maqsadlarda) uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan koʻp kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari soliq solish obyekti boʻlmaydi degan qismi qoʻshildi. Mazkur oʻzgarish amaliyotda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan turli talqinlarni oldini olish maqsadida kiritildi.

Soliq kodeksining 439-moddasi ikkinchi qismi jismoniy shaxslar yer soligʻini summasi va toʻlash muddatlari haqida, 447-moddasi toʻrtinchi qismidagi tadbirkorlik maqsadida foydalanish uchun moʻljallangan koʻchmas mullka ega boʻlgan jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida roʻyxatdan oʻtgan dehqon xoʻjaliklariga suv soligʻini va ularni toʻlash muddatlari toʻgʻrisidagi xabarnomani topshirish tartibiga jismoniy shaxslarga imzo qoʻydirib yoki toʻlov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshirishi bilan birgalikda agar mavjud boʻlsa soliq toʻlovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda, soliq toʻlovchi nomidagi uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilishi tartibi ham qoʻshildi. Endilikda soliq toʻlovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda, soliq toʻlovchi nomidagi uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilsa ham toʻlov xabarnoma yuborilgan hisoblanadi.

Soliq kodeksining vaqtinchalik soliq imtiyozlarini belgilovchi 483-moddasi quyidagi tahrirda 42-45-qismlar bilan toʻldirildi. (qirq birinchi qism) "Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlashning kompleks dasturi"da ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar boʻyicha ajratilgan bank kreditlari boʻyicha olingan foizlar tarzidagi daro-

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС TARAQQIYOT

madlari foyda solig'ini hisoblash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda chegiriladigan xarajatlar sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 5-bandiga asosan Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlashning kompleks dasturida ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar bo'yicha ajratilgan bank kreditlaridan dastlabki ikki yil davomida olingan foiz ko'rinishidagi daromadlarini foyda solig'ini bazasidan chegirib tashlash belgilangan.

Shundan kelib chiqib, mazkur qo'shimchalar kiritilmoqda. (qirq ikkinchi qism) "Izlanish va rivojlanish" markazlari 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda mazkur markazlarning obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini ushbu soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo'yicha to'laydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori 7-bandida "Izlanish va rivojlanish" (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha hisoblangan summa miqdorining 1 foizini to'lash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida hisoblash tartibi joriy etish vazifasi topshirilgan. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ uchun foyda solig'i stavkalari soliq solish bazasining, tovar (xizmat) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning 15 foiziga teng miqdordagi qismiga 15 foiz, qolgan qismiga 50 foiz miqdorida foyda solig'i stavkasi belgilandi. (2021-yilda qolgan qismiga 75% edi. Maxsus renta solig'i joriy qilinishi munosabati bilan bu foiz pasaytirilgan edi, Maxsus renta solig'i SKning 483 moddasi 43-qismiga asosan 2024, 2025-yillarda undirilishi vaqtincha to'xtatildi, lekin foyda solig'ining sobiq stavkasi tiklanmadi). (qirq to'rtinchi qism) Budjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan va hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalari hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalari uchun xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi (bundan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'lari mustasno) hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma, shuningdek, ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvarga qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-195-son Farmoniga asosan o'zgartirish kiritilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqobat muhitini buzuvchi individual imtiyozlar va preferensiyalarni yetarli natija ko'rsatmayotgan sohalar va yo'nalishlar bo'yicha, shuningdek eskirgan va amaliyotda foydalanilmayotgan imtiyozlar va subsidiyalarni qisqartirish yoki bekor qilish, yuqori natija ko'rsatayotgan hududlar, yuqori qo'shilgan qiymat yaratib, tez o'sayotgan sohalar uchun yangi qo'llab-quvvatlash turlarini joriy etish, yaratilgan qo'shilgan qiymat, ish o'rinlari, eksport kabi ko'rsatkichlar asosida har bitta imtiyoz, subsidiya, kompensatsiya va kafillik bo'yicha samaradorlikni baholash tizimini (KPI) yo'lga qo'yish hamda Moliya vazirligida yangi tuzilma ochish, ushbu tuzilmada soliq hisobini yaratish, imtiyozlarni, subsidiyalarni hamda boshqa yengilliklarni samaradorligini baholashni amalga oshirishi kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar/Литература/Референсе:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2021-yil 20-avgust. – https://president.uz/uz/lists/view /4551
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
3. Александров И. М. (2009) Налоги и налогообложение: Учебник / И. М. Александров. – 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско- торговая корпорация "Дашков и К, 228 с.
4. Jo'rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: NORMA. 184-bet.
5. Баладина А.С. (2011) Анализ теоретических аспектов налоговых льгот и налоговых преференций // Вестник Томского государственного университета- №4(16)- С. 45-60.
6. Raxmatullayeva F. (2016) Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi roli. // Moliya ilmiy jurnali №2. – 108-bet.
7. Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. (2004) Налогооблажение юридических и физических лиц. –М.: Экзамен, С.44.
8. Майбуров И.А. (2011) Налоги и налогообложение . Ред. 4-е изд. - М: 558 с.

9. Милякова Н.В. (2008) Налоги и налогооблажение. Учебник. 7-е изд. Перераб. И доп.–М.:ИНФРА, С.33 Milyakova N.V.
10. Ўзбекистон Республикаси солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.
11. Normurzayev, U. (2023). Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida moliya bozorining dolzarb muammolari tadbirkorlikni teng raqobat sharoitlarini yaratish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish yo‘lari. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 88–89. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032
12. Normurzayev, U. (2023). Soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 334–339. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51
13. Normurzayev, U. (2023). Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliq organlarining ahamiyati. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 215–221. Retrieved from https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66
14. Normurzayev, U. (2023). O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta’minlash yo‘llari. Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil, 1(6), 177–182. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp177-182
15. Normurzayev, U. (2022). Hukumatimiz tomonidan soliq ma’murchiligi bo‘yicha 2018-2022-yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 10 (5), 325–330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.